O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-iyul | 404-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-iyundagi 353-son qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 4-noyabrdagi PQ – 4881 - son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-iyundagi “Kurash mahorat maktablari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 353-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son qarorida viloyatlar markazlari, Nukus va Toshkent shahrida bosqichma-bosqich kurash mahorat maktablarini (keyingi o‘rinlarda — kurash mahorat maktablari) tashkil etish belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-iyundagi “Kurash mahorat maktablari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 353-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

kurash mahorat maktablarining boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlar jadvali 1-ilovaga muvofiq;

kurash mahorat maktablarining o‘quvchi-sportchilarini zarur anjomlar, sport ekipirovkasi va formali kiyim-bosh bilan ta’minlash normativlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

4. Quyidagi tartibga muvofiq:

a) kurash mahorat maktablari ixtisoslashtirilgan davlat sport-ta’lim muassasasi hisoblanadi hamda o‘z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining “Sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2018-yil 2-iyundagi 410-son qarorida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirilishi;

kurash mahorat maktablarida o‘ziga tegishli sport inshoatlari imkoniyatlaridan kelib chiqib, qo‘shimcha ravishda Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan yakkakurash sport turlari ham rivojlantirilishi mumkinligi;

kurash mahorat maktablari o‘quvchi-sportchilarining umumiy kontingenta jami 140 nafarni tashkil etib, ular 5-11-sinf o‘quvchilaridan iborat bo‘lishi;

kurash mahorat maktablari o‘quchi sportchilarining umumta’lim dasturlari bo‘yicha ta’lim olishi kurash mahorat maktabiga yaqin joyda joylashgan umumta’lim maktablarida tashkil etilishi;

kurash mahorat maktablari direktori, direktor o‘rinbosarlari, trener-o‘qituvchilari, yo‘riqchi-uslubchilari, tarbiyachilari mehnatiga haq to‘lash, shuningdek, direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarini, tarbiyachilar mehnatini rag‘batlantirish Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida” 2005-yil 21-dekabrdagi 275-son qaroriga muvofiq amalga oshirilishi;

kurash mahorat maktablari direktori, direktorning sport ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, trener-o‘qituvchilari, yo‘riqchi-uslubchilari, tibbiyot xodimlarining mehnati Vazirlar Mahkamasining “Sport maktablari faoliyatini hamda sport maktablari trenerlari va mutaxassislari mehnatini moddiy rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2010-yil 23-sentyabrdagi 211-son qaroriga muvofiq rag‘batlantirilishi (ustama haq to‘lanadi);

kurash mahorat maktablari tibbiyot xodimlari mehnatiga Vazirlar Mahkamasining “Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida” 2005-yil 21-dekabrdagi 276-son qaroriga muvofiq haq to‘lanishi;

kurash mahorat maktablariga o‘quvchi-sportchilar umumiy kontingentdan kelib chiqqan holda bo‘sh o‘rinlar O‘zbekistan Respublikasi Sport vazirligi tomonidan yil davomida iqtidorli o‘quvchi-sportchilar, shu jumladan, tegishli sport turlari bo‘yicha O‘zbekiston chempionati va kubogi g‘olib va sovrindorlari bilan to‘ldirilishi;

kurash mahorat maktablarida o‘quv mashg‘ulot jarayonining davomiyligi va davriyligi sport musobaqalari taqvimi hamda o‘quvchi- sportchilarning har bir guruhi uchun yakka tartibda sport tayyorgarligi davrlari hisobga olingan holda, O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan belgilanishi;

b) kurash mahorat maktablariga belgilangan tartibda tasdiqlanadigan sport maktabi sport tadbirlarining taqvim rejasi hamda ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag‘lar doirasida o‘quvchi sportchilar va trenerlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari bilan kelishgan xolda, xalqaro musobaqalarda va xorijda o‘tkaziladigan o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarida qatnashish uchun yuborish huquqi berilganligi;

d) quyidagilar kurash mahorat maktablarini moliyalashtirish manbalari etib belgilanganligi:

davlat byudjet mablag‘lari;

faoliyat ixtisosligi bo‘yicha shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatishdan va ularning ustavidagi vazifalarga muvofiq bo‘lgan boshqa faoliyat turlaridan olinadigan daromadlar;

kurash mahorat maktablari o‘quvchi-sportchilarini tekin (imtiyozli) ovqatlantirish xarajatlarini qisman qoplash uchun ota-onalar to‘lovi;

asosiy mashg‘ulotlar o‘tkazilmaydigan vaqtda bo‘sh turgan mol-mulkni ijaraga berishdan tushadigan mablaglar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonunchilik xujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar;

e) O‘zbekistan Respublikasi Sport vazirligi 2024/2025 o‘quv yili boshlanguniga qadar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan birgalikda kurash mahorat maktablarida umumiy o‘rta ta’lim jarayonining uzviyligini hamda sport mahoratini uzluksiz oshirishni ta’minlashni hisobga olgan holda malaka talablarini ishlab chiqishi va tasdiqlashi;

f) O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi kurash mahorat maktablari o‘quvchi-sportchilarini maktabga yaqin joylashgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida umumiy o‘rta ta’lim dasturi bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish yuzasidan zarur choralarni ko‘rishi;

g) O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi:

kurash mahorat maktablarining ustavlari tasdiqlanishini, shuningdek, ularning belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi;

kurash mahorat maktablarini malakali trenerlar bilan bosqichma- bosqich to‘ldirish yuzasidan zarur choralar ko‘rilishi;

kurash mahorat maktablarida o‘quvchi-sportchilarni tayyorlash sifati yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib, Sport boshqarmasi boshlig‘i N.Hakimov belgilansin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish va mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Raximov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 25-iyuldagi
404-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Kurash mahorat maktablarining boshqaruv, texnik,
xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining
NAMUNAVIY SHTATLAR JADVALI**

T/r	Lavozimlar nomi	Shtat birligi soni
1.	Direktor	1
2.	Direktorning sport ishlari bo‘yicha o‘rinbosari	1
3.	Direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari	1
4.	Xo‘jalik mudiri	1
5.	Ish yurituvchi - kadrlar bo‘yicha inspektor	1
6.	Sport psixologi	1
7.	Bosh xisobchi	1
8.	Sport zaxirasini tayyorlash va monitoringini yurituvchi bo‘lim katta yo‘riqchi-uslubchisi	1
9.	Sport shifokori (travmatolog)	1
10.	Ombor mudiri*	1
11.	Tibbiyot hamshirasi	1
12.	Bosh oshpaz*	1
13.	Oshpaz*	1
14.	Oshxona ishchisi*	1
15.	Idish yuvuvchi*	1
16.	Xo‘jalik bekasi	0,5
17.	Kiyim va choyshablarni ta’mirlash bo‘yicha tikuvchi	0,5

Izoh.

1. *Kurashmahorat maktablarida tibbiy xodimlar shtat birliklari doirasida sport farmakologi, sport diyetologi va uqalovchi lavozimlari kiritilishi mumkin.*

2. Kurashmahorat maktablarining boshqaruv, texnik, xizmat kursatuvchi va oʻquv-yordamchi xodimlari uchun alohida lavozimlarni kiritish normalari ushbu namunaviy shtatlar jadvalining ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Kurash mahorat maktablarida tarbiyachi shtat birliklari doirasida katta tarbiyachi lavozimi kiritiladi.

**) Ushbu lavozimlar autsorsing xizmatiga oʻtganda kiritilmaydi.*

Kurash maxorat maktablarining boshkaruv,
texnik, xizmat kursatuvchi va ukuv-yordamchi
xodimlarining namunaviy shtatlar jadvaliga ilova

Kurash mahorat maktablarining boshqaruv, texnik, xizmat kursatuvchi va oʻquv-yordamchi xodimlari uchun alohida lavozimlarni kiritish

NORMALARI

1. Mazkur Normalar kurash mahorat maktablarining boshqaruv, texnik, xizmat kursatuvchi va oʻquv-yordamchi xodimlari uchun alohida lavozimlarni kiritish tartibini belgilaydi.

2. Kurash mahorat maktabining 2500 kv metr va undan ortiq qoplama tushalgan (asfalt, beton, bruschatka) maydonini supurish uchun - 1,0 birlik xovli supuruvchi lavozimi kiritiladi. Qoplama tushalgan maydonning keyingi har 2 500 kv metr uchun 1,0 birlikdan hovli supuruvchi lavozimi kiritiladi.

3. Kurash mahorat maktabining mevali bogʻ, gulzor va kukalamzorlashtirilgan 0,5 ga dan 2,0 ga gacha maydoni uchun - 1,0 birlik, keyingi har 2,0 ga maydon uchun - 1,0 birlik bogʻbon lavozimi kiritiladi. Ijaraga bergan maydoni bundan mustasno.

4. Kurash mahorat maktabini kecha-kunduz qoʻriqlash uchun dam olish va bayram kunlari hamda taʼtil davrida har bir oʻrin almashish ish vaqti hisobga olingan holda 3,0 birlik qorovul lavozimi kiritiladi.

5. Bino va inshootlar, shuningdek, jihozlarni joriy taʼmirlovchi va xizmat koʻrsatuvchi:

elektromontyor lavozimi 700 tagacha yoritish nuqtalari (oʻchirib-yoqish moslamasi, rozetka va korobka) (taʼlim muassasasiga tegishli koʻcha yoritish nuqtalari ham hisoblanadi) uchun - 0,5 birlik, har 700 ta yoritish nuqtalari uchun -1,0 birlik;

chilangar lavozimi - suv quvurlari, kanalizatsiya va issiqlik quvvati bilan jihozlangan har 2 800 kv metr maydon uchun - 1,0 birlik (biroq taʼlim muassasasida 2,0 birlikdan ortiq boʻlmagan holda);

duradgor lavozimi - kurash mahorat maktabi binosining foydalaniladigan 5 000 kv metr va undan ortiq maydoni uchun - 1,0 birlik kiritiladi.

Kurash mahorat maktabi binolarining ekspluatatsiya ishlari ixtisoslashtirilgan tashkilot tomonidan shartnoma asosida amalga oshirilganda, inshootlar va jihozlarni joriy taʼmirlovchi va xizmat koʻrsatuvchi ishchilar lavozimlari kiritilmaydi.

6. Binolarning ichki qismi, shu jumladan, xizmat xonalari, yo‘laklar, zinapoyalar, majlislar zali, sport zali va o‘quv-auditoriya (yotoqxonaning o‘quvchilar yotadigan xonalari bundan mustasno) maydonini tozalovchi farrosh lavozimi har 800 kv metr tozalash maydoni uchun - 1,0 birlik hisobidan kelib chiqqan holda kiritiladi.

7. Uy-joy-kommunal xo‘jalik tizimiga o‘tkazilmagan kurash mahorat maktabida isitish mavsumida (5 oy) o‘t yoquvchi lavozimi:

lokal isitish tizimida ko‘mir, torf, mazut va boshqalar bilan isitiladigan har bir qozonxonaga har bir o‘rin almashish ish vaqti uchun – 2,0 birlikdan, tabiiy gaz yoqilg‘isi bilan ishlaydigan har bir qozonxonalarda (qozonxona hajmidan qat’i nazar) har bir o‘rin almashish ish vaqti uchun 1,0 birlikdan (bunda har bir o‘rin almashish ish vaqti uchun - 1,0 birligi yil davomida saqlanadi);

alohida kichik qozonlar bilan isitiladigan har bir alohida manzilda joylashgan binolar majmuasiga har bir o‘rin almashish ish vaqti uchun qozonlar soni 6 tagacha bo‘lsa - 1,0 birlikdan, 6 ta va undan ortiq bo‘lsa – 2,0 birlikdan (bunda har bir o‘rin almashish ish vaqti uchun - 1,0 birligi yil davomida saqlanadi);

isitish pechlari orqali isitiladigan muassasalarda har 10 ta pech uchun -1,0 birlikdan va keyingi har 5 - 9 ta pech uchun qo‘shimcha 0,5 birlikdan (lekin muassasa uchun 0,5 birlikdan kam bo‘lmagan holda) kiritiladi.

8. Kurash mahorat maktabida tarbiyachi lavozimi dam olish va bayram kunlarida har bir o‘rin almashish ish vaqti hisobga olingan holda, kurash mahorat maktabining o‘quvchilar turar joyida yashovchi har 25 nafar o‘quvchiga 1,0 birlik hisobidan kiritiladi.

9. Tungi navbatchilik uchun tarbiyachi yordamchisi lavozimi bola soni 140 nafargacha bo‘lgan yotoqxona binosi uchun 2 shtat birlik kiritiladi.

10. Kurash mahorat maktabiga tegishli soz holatdagi har bir avtotransport vositasi uchun 1,0 birlik xaydovchi lavozimi kiritiladi.

11. Sport inshootlari, yopiq va ochiq suv havzasi hamda suv havzalari mavjud bo‘lgan kurash mahorat maktabida 1,0 birlikdan dezinfektor lavozimlari kiritiladi.

12. Ushbu Normalar asosida tuziladigan shtatlar jadvalini ro‘yhatdan o‘tkazish uchun taqdim qilishda, unga kurash mahorat maktabining asosiy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (o‘quvchilar kontingenti, binolar soni, maydonlar hajmi, filiallar (agar mavjud bo‘lsa) to‘g‘risidagi ma’lumotlar) muassasa rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolangan holda ilova qilinadi.

13. Shtatlar jadvaliga boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv- yordamchi xodimlar kiritilishining to‘g‘riligi hamda asoslanganligi yuzasidan javobgarlik ushbu ta’lim muassasasi rahbari va bosh hisobchisi zimmasiga yuklanadi.

14. Kurash mahorat maktabi shtatlar jadvalini tuzishda, ularning faoliyatini o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur normalarda kuzda tutilmagan lavozimlarni hududiy moliya organlari bilan kelishgan holda kiritishga ruxsat beriladi.

15. Shtatlar jadvalini tuzishda kurash mahorat maktabining yilning 1 yanvar holatidagi ro‘yhatida mavjud bo‘lgan o‘quvchilar soni hisobga olinadi va u o‘quvchilar soni o‘zgarishiga ko‘ra yilning 1-sentyabrdagi holati bo‘yicha qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 25-iyuldagi
404-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Kurash mahorat maktablarining o‘quvchi-sportchilarini zarur anjomlar, sport ekipirovkasi va formali kiyim-bosh bilan ta’minlash NORMATIVLARI

T/r	Anjomlar nomi	Ulchov birligi	Bir nafar o‘quvchi-sportchi uchun normativ	Foydalanish muddati
I. Yashash uchun anjomlar				
1.	To‘shak	dona	1	5 yil
2.	Paxtali odeyal	dona	1	3 yil
3.	Junli odeyal	dona	1	3 yil
4.	Yostiq	dona	1	3 yil
5.	Yoping‘ich	dona	1	5 yil
6.	Sochiq	dona	2	1 yil
7.	Yostiq jildi	dona	2	1 yil
8.	Choyshab	dona	2	1 yil
9.	Ko‘rpa jildi	dona	2	1 yil
10.	Kiyim shkafi	dona	1	5 yil
11.	Javoncha	dona	1	5 yil
12.	Karavot	dona	1	5 yil
13.	Stol	dona	1	5 yil
14.	Stul	dona	1	5 yil
15.	Karavotoldi gilamchasi	dona	1	3 yil
16.	Grafin va stakan	dona	1	3 yil
II. Sport ekipirovkasi va formali kiyim-bosh				
17.	Kurash yaktagi (Kimono)	dona	2	1 yil
18.	Belbog‘	dona	2	1 yil
19.	Sport maykasi	dona	2	1 yil
20.	Sport shortlari	dona	2	1 yil
21.	Mashq qilish uchun sport kostyumi	jamlanma	1	2 yil
22.	Vaznni kamaytirish kostyumi	jamlanma	1	2 yil
23.	Sport poyabzali	juft	1	1 yil
24.	Shippak	juft	1	1 yil
25.	Sport sumkasi	dona	1	3 yil
26.	Tizzaband	juft	1	1 yil